

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14559507>

KONSTITUTSIYA – ERKIN FARAVON HAYOT GAROVI

Negmatjonova Zebo Baxtiyor qizi

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti NTM

Xorijiy tillar fakulteti 1-kurs talabasi

jumayevashaxlo507@gmail.com

ANNOTATSIYA. Bu maqolada konstitutsiya tushunchasi va uning asosiy qismlari haqida to'liq ma'lumot berilgan. Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni bo'lib, fuqarolar huquqlari va erkinliklarini belgilaydi. Maqolada konstitutsiyaning o'zgarishi va xalqaro ta'siri ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, asosiy qonun, fuqarolar huquqlari, erkinliklar, davlat idoralari, ijtimoiy adolat, o'zgarishlar, xalqaro ta'sir, huquqiy standartlar, barqarorlik.

ANNOTATION. This article provides comprehensive information about the concept of a constitution and its main parts. The Constitution is the fundamental law of the state and defines the rights and freedoms of citizens. The article also examines the constitutional changes and their international impact.

Key words: constitution, basic law, civil rights, freedoms, government bodies, social justice, changes, international influence, legal norms, stability.

Аннотация. В данной статье представлена информация о понятии конституции и ее основных частях. Конституция является основным законом государства и определяет права и свободы граждан. В статье также рассматривается изменение конституции и его международное влияние.

Ключевые слова: конституция, основной закон, гражданские права, свободы, государственные органы, социальная справедливость, изменения, международное влияние, правовые нормы, стабильность.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, nafaqat davlatimizning asosiy qonuni balki har bir fuqaroning erkin va farovon hayot kechirishining garovidir. U fuqarolar huquqlari, erkinliklar va majburiyatlarini belgilab beradi. Konstitutsiya oliy qadriyat sifatida har bir shaxsga o‘z fikrini erkin ifoda etish, ta’lim olish, ishlash va o‘z hayotini qurish imkonini beradi. Erkin hayot, insoning o‘z fikr va irodasi bilan yashash imkoni yaratadi. Fuqarolar erkin fikr bildirish, o‘z g‘oyalarini ifoda etish huquqiga egadirlar. Faravonlik esa iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlar orqali ta’minlanadi. Konstitutsiya, faravon hayotni yaratish uchun zaruriyatlarni belgilab, adolat va tenglik tamoyillarini o‘z ichiga oladi. Konstitutsiyaning amaldagi roli shundaki, u nafaqat huquqlarni belgilabgina qolmay, balki ularni amalga oshirish va himoya qilish mexanizmlarini taqdim etadi. Demokratik jamiyatda fuqarolar konstitutsiyaviy asosda hayot kechirish, o‘zlarining haq-huquqlarini talab qilishga haqlidir. Konstitutsiya davlatning siyosiy va ijtimoiy strukturasi asosini tashkil etadi. [1].

U fuqarolarning davlat organlari organlari oldida himoya qiluvchi, ularning huquq va erkinliklarini kafolatlaydi. Fuqarolarning saylov huquqi, so‘z erkinligi, yig‘ilish huquqi kabi asosiy haquqlar konstitutsiyada belgilangan. Konstitutsiya ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. U davlat siyosatini belgilab, turli guruhlar o‘rtasidagi nizolarni oldini olish imkonini yaratadi. Shuningdek, qonun ustuvorligi va adolatni ta’minlaydi.

Fuqarolarni konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar haqida bilimlarini oshirish, jamiyatda demokratiya va erkin fikrni rivojlantirish uchun zarurdir. Ta’lim orqali fuqarolar o‘z huquqlardan to‘g‘ri foydalanish va talab qilgan jarayonlarda faol ishtirok etish imkoniga ega bo‘lishadi. Konstitutsiya o‘zgarishi avvalambor jamiyat ehtiyojlariga javob berishi lozim. Ko‘pincha, konstitutsiya o‘zgarishlariga katta e’tibor beriladi. Chunki u davlat asoslarini o‘zgartirishi mumkin.

Konstitutsiya -davlatning asosiy qonuni bo‘lib, uning tuzilishi, organlari va fuqarolarining huquq va erkinliklarini belgilaydi. U davlatning asosiy tamoyillarini va nizomlarini o‘z ichiga oladi. Turli mamalakatlarda konstitutsiyalarning tarixi bedorlik va erkinlikni himoya qilish uchun kurash bilan bog‘liq. Birinchi yozma konstitutsiya

1215-yilda Angliyada qabul qilingan [Magna Carta] bo‘lib, bu yerda fuqaro huquqlari va davlat hokimiyatining cheklanishi belgilangan. Ko‘p mamlakatlarda konstitutsiyani o‘zgartirish jarayoni qiyinlashtirilgan, bu davlatning asosiy tamoyillarini saqlab qolishga xizmat qiladi. [2]. Konstitutsiyalar yozma va og‘zaki, qat’iy yumshoq, federal va unitar shaklda bo‘lishi mumkin. Yozma konstitutsiyalar ko‘pincha aniq hujjat sifatida qabul qilinadi.

Konstitutsiyalarda odatda fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari ko‘rsatilgan. Bu huquqlar davlat tomonidan himoya qilinadi. Konstitutsiya davlatning hokimiyat organlarining o‘zaro aloqalarini, masalan, parlament, hukumat va sud tizimini belgilaydi. Bu tizimlarda har bir organning vakolatlari va majburiyatlari aniq ko‘rsatilgan. Ko‘plab davlatlar konstitutsiyani qabul qilayotganda, jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarni inobatga olishlari lozim. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar, inson huquqlarini himoya qilish uchun xalqaro standartlar ishlab chiqardi. Mamlakatlarda o‘z konstitutsiyalarida bu standartlarga mos kelishini ta’minlashi lozim. Misol sifatida: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yilda qabul qilingan bo‘lib, unda davlat suvereniteti, fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari aks ettirilgan. Konstitutsiya prinsiplarini belgilab, jamiyatning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Konstitutsiya inson huquqlarini kafolatlash bilan birga, davlatning asosiy vazifalarini ham belgilaydi. [3]. Har bir fuqaro qonun oldida teng bo‘lishi, o‘z fikrini erkin bayon qilish, ta’lim olish va mehnat qilish kabi huquqlarga ega bo‘lishi Konstitutsiya orqali ta’minlanadi. Erkin hayot uchun huquqiy kafolatning mavjudligi jamiyatda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlaydi. Fuqarolar o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishda qonunlar orqali himoya topganida, jamiyatda ishonch muhitini yaratadi. Faravon hayot esa mehnat, tadbirkorlik va ta’lim sohalaridagi teng imkoniyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Konstitutsiya faqat qonunlar to‘plami emas, balki u xalqning kelajagi, erkinlik va faravonlik ramzidir. Shu sababli, uni hurmat qilish va unga rioya qilish – har bir fuqaroning burchidir.

Xulosa va takliflar: Konstitutsiya bir davlat va uning fuqarolari o'rtasidagi ishonch munosabatlarini mustahkamlovchi muhim hujjatdir. Faravon hayot, erkinlik va adolatni ta'minlash uchun konstitutsiyaviy prinsiplarga amal qilish har bir fuqaroning vazifasidir. Konstitutsiya nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega. U davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, barqarorlikni saqlash va adolatni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Konstitutsiya – har bir davlatning asosiy huquqiy hujjati bo'lib, fuqarolar huquqlari, davlat strukturasi va hokimiyat organlarining o'zaro munosabatlarini belgilaydi. [4]. U ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarga mos ravishda ishlab chiqarishi lozim. Shu bilan birga, u xalqaro inson huquqlari standartlariga asoslangan bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, misol sifatida, davlatning suverenitetini va fuqarolarning asosiy huquqlarini ta'minlaydi. Umuman olganda, konstitutsiya jamiyatning rivojlanishida, adolat va tartibni saqlashda muhim rol o'ynaydi. [5]. Konstitutsiya, nafaqat huquqiy normative, balki ijtimoiy kelishuv vositasi sifatida ham xizmat qiladi. U fuqarolar o'rtasida adolat va tenglik tamoyillarini davom ettiradi. Har bir hukumat, Konstitutsiya asosida, xalqqa xizmat qilishi va ularning huquqlarini himoya qilish lozim. Shuningdek, konstitutsiyalarni davr talablariga moslashtirish, ularni o'zgartirish yoki yangilash zarurligini ta'minlaydi. Bu jarayonda jamiyatning har bir qatlamining fikri, ehtiyojlari va manfaatlari inobatga olinishi lozim. Konstitutsiya – davlatning mustahkam poydevori bo'lib, fuqarolar uchun erkin va faravon hayotning asosiy kafolatidir. [6]. Tinchlik, barqarorlik va rivojlanishga erishish uchun Konstitutsiyaga hurmat bilan yondashish, uning qoidalariga rioya qilish muhim hisoblanadi. Shunday ekan, har bir fuqaro Konstitutsiyani qadrlashi, uni o'rganishi va uning talablariga amal qilishi lozim, chunki u jamiyatning tinchligi va faravonligi garovidir. Konstitutsiya fuqarolariga o'z huquqlari va erkinliklarini to'g'ri amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Foyadalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: 2019.
2. Baratov R.O'., va boshqalar. O'zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. TDTrU. 2022.
3. Jumayeva Sh. S. THE IMPORTANCE OF GENDER EQUALITY IN THE EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY. 1 (9), 114-117.2023/12/11.
4. SOCIAL AND SPIRITUAL ENVIRONMENT AND ITS INFLUENCE ON UPBRINGING AND EDUCATION. International Journal of Formal Education 2 (11), 349-354..
5. Combination of Mythological, Religious and Philosophical Worldviews.Jumayeva Sh.S. International Interdisciplinary Research Journal.270-274 p.2023.Volume 2, Issue 5 Year 2023 ISSN: 2835-3013p.
6. The Culture of Reading as a Phenomenon of Spiritual Life. Jumayeva Sh.S. Kayumova S.A.,BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:5|2023 .
7. GLOBALLASHUV VA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIIY FAOLLIGI. Jumayeva Sh.S. ,Qayumova S.Q. Educational Research in Universal Sciences (ERUS).June 2023.1151-b.
8. АХБОРОТ ХАВФСИЗЛИГИ ВА МАФКУРАВИЙ ҲИМОЯ.Жумаева Ш.С. Educational Research in Universal Sciences (ERUS).June 2023.1012-b.